

**ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA SHEVAGA XOS SO‘ZLARDAN
FOYDALANISHI MAHORATI
(“MAYIZ YEMAGAN XOTIN” HIKOYASI MISOLIDA)**

Rajabova Dildora

JDPU o‘zbek tili kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbek yozuvchilaridan biri bo‘lgan Abdulla Qahhorning so‘zlardan foydalanish san’ati, shevaga xos so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llashi “Mayiz yemagan xotin” hikoyasi orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: sheva, lahja, so‘z sana’ti, shevaga xos so‘zlar.

Har qanday milliy til kabi o‘zbek tili ham o‘zbek millatini birlashtiruvchi, uning milliy ruhini ifodalovchi vositadir. Chunonchi, Respublikamiz Prezidenti ta’kidlaganidek: “ Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir. Ona tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar”. Bunday fikrlar bejizga aytib o‘tilmagandir. Xususan, har bir xalqning milliy o‘zligi, avvalo, uning tilida zuhur etadi. O‘zbek tilining tabiatni va mantig‘ida xalqimizning saviyasida, tafakkur tarzida o‘z ifodasini topgandir.

Abdulla Qahhor o‘rinli so‘z qo‘llash mahoratini puxta egallagan adibdir. Ijodida voqelikni realistik talqin etish ustuvorlik qiladi. Adib serqirra ijodkor sifatida adabiyotning deyarli barcha tur va janrlarida qalam tebratgan. „Olam yasharadi“ nomli birinchi hikoyalar to‘plami 1932-yilda bosilgan. Abdulla Qahhor ijodiy hayoti davomida 40 dan ziyod asar e’lon qilgan. Bu kitoblar orasida 30 ga yaqin hikoyalar ham bo‘lib, ular o‘zbek adabiyotida hikoya janrining badiiy ufqlarini kengaytirgani va asarlarida shevaga xos so‘zlardan foydanganligi bilan ahamiyatlidir.

Ma’lumki, badiiy asarda shevaga xos so‘zlardan, lahjalardan foydalanish asarning ifoda kuchi va realistik qudratini oshirib, fikrning obrazli bayon qilinishini ta’minlaydi. Shuningdek, asarda ma’lum adabiy me’yorlardan qochish, shevalardan foydalanish obrazlarni jonli qilib tasvirlashda kitobxonlarni o‘sha muhitga tushirishga xizmat qildi. Shu sababli ham barcha davrlarda yozuvchilar o‘z asarlarida shevaga xos so‘zlardan lahjalardan unumli foydalanishgan. Biz ushbu maqolamizda yozuvchi Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasida shevaga xos so‘zlardan foydalanish mahorati, ularning asardagi o‘rni va ma’nolari xususida to‘xtalib o‘tamiz. Shu o‘rinda,

sheva, lajha tushunchalariga tilshunos olimlarimizning fikrlariga to‘xtalishni lozim topdik.

Abdulla Qahhor hikoyalarining tili alohida e’tiborga molikdir. Xususan, yozuvchi barcha badiiy asarlarida shevalardan foydalanadi. Jumladan, yozuvchining “ Mayiz yemagan xotin” hikoyasida ham bir qator shevalardan foydalangandir. Misol uchun, Mulla Norqo‘zi tomonidan ishlatilgan quyidagi so‘zlar ham buning yorqin isbotidir:” Mulla Norqo‘zi har kuni bozordan qaytib samovarga chiqadi va ko‘ngli tortgan odamlarni atrofiga to‘plib, yarim kechagacha shariatdan yuz o‘girgan xotinlar to‘g‘risida shunday vaysab o‘tiradi; ba’zan panjasini yozib, o‘zi bilgan oilalarni sanab chiqadi”... Bu yerda “vaysamoq so‘zi ko‘p gapirmoq, gapirib joniga tegmoq kabi ma’nolarni anglatib kelmoqda. Panja so‘zi esa izohli lug‘atlarda qo‘l ma’nosida keladi”². Yozuvchi bu so‘zlarni aynan shevada qo‘llashidan maqsad qahramonning holatni yanada ta’sirli qilib chiqarishdir. Bulardan tashqari shevaga xos so‘zlar boshqa o‘rinlarda ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, Mulla Norqo‘zining xotini tilidan aytilgan ushbu gapga e’tiborimizni qarataylik, “ Tag‘in ham zilzila bo‘lib hammani yer yutmas ekan-da! Tavba qildim-ey...” Yoki bo‘lmasa choyxonadagi erkaklar suhbatidagi quyidagi parchada ham buni yaqqol ko‘rishimiz mumkindir. “ Itning og‘ziga charm to‘r tutib qo‘ygan ekan, “jonidan, nega itingizning og‘zini boylab qo‘yibsiz, ko‘chadan o‘zi topib yegani yaxshi emasmi?” desam, “buning ham og‘zi sizning og‘zingizdek shalaq, ehtiyyot yaxshi-da “ deydi...”³ Bu yerda tag‘in so‘zi adabiy tilda “yana” ma’nosida keladi va aynan bu yerda ma’noni yana ham kuchaytirish uchun qo‘llangan. Shalaq so‘zi esa izohli lug‘atlarimizda shaloq tarzida ifodalanadi va asl ma’nosи “ qismlari eskirib, ishdan chiqqan “ degani, ko‘chma ma’noda esa “ axloqi buzuq, bezori” ma’nosida keladi.

Aynan bu yerda ham yozuvchi bu so‘zni ko‘chma ma’noda qo‘llaydi va obrazni jonli qilib ko‘rsatadi. Bulardan ko‘rinib turibdiki, Abdulla Qahhor asarlarda so‘z qo‘llash mahorati qanchalik yuqori ekanligi. Shu o‘rinda adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovning Abdulla Qahhorning til mahorati haqidagi quyidagi fikrlari yodimizga tushadi: “ Abdulla Qahhorning tili o‘zi katta olam. Bir marta bu olamga kirgan odam undagi mislsiz go‘zallikning asiri bo‘lib qoladi, u olam tufayli o‘zbek tili deb atalmish ona tilimizning nafisligiga, aniqligiga, rangdorligiga, har qanday nozik tuyg‘uni, har qanday murakkab kechinmani ifodalay oladigan qudratga qoyil bo‘ladi. Abdulla Qahhor ishlatgan so‘zlar, yaratgan jumlalar tilimizning boyligini o‘zida aks ettirib, kamalakday tovlanadi. Yozuvchi bunga... bunga tinimsiz mehnati bilan erishgan”.

²Hojiyev A, Nurmonov A, Zaynobiddinov S, Kokren K, Saidxonov M, Sobirov A, Qurbonov D. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarning izohli lug‘ati- Toshkent: “Sharq”. 2001, 279-168-betlar

³ Qahhor A. Anor hikoyalar to‘plami- Toshkent: “ G‘ofur G‘ulom”.2012, 88-bet

Chindan ham Abdulla Qahhor har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llay bilgan yozuvchidir. U har bir shevaga xos so‘zni qo‘llar ekan uning ortida o‘sha muhitni jonli, ta’sirli va o‘sha obrazni yanada kitobxonga yaqinlashtirish maqsadi yotadi va eng muhim o‘zbek tilining naqadar boy til ekanligini ham ko‘rsatishga harakat qiladi. Yana hikoya tahlili davom ettiradigan bo‘lsak, shevaga, lahjaga xos bo‘lgan so‘zlarga nazarimiz tushadi. “ Agar siz yuziga kulib qarab turmasangiz, devorga shoti qo‘yib ko‘chaga mo‘ralaydi; ko‘ylaklik olib bermasangiz, tom orqasidan ko‘ylakli uzatadigan chiqib qoladi”... Ushbu parchada ham qipchoq lahjasiga mansub so‘zlar qo‘llangan. Shoti so‘zi adabiy tilda “ narvon”, tom so‘zi esa “ uy” deganidir. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, asar qahramonlari qishloq odamlaridir. Yozuvchi bunday so‘zlardan foydalanar ekan faqatgina obrazlarni yashash hududini ko‘rsatibgina qolmay ularning nutqida emotsional-ekspressivlikni ham namoyon qilmoqchi bo‘ladi. Masalan, hikoya oxirida ayol tilidan ishlatilgan “ megajin”, “ manjalaqi” yoki bo‘lmasa devor tepasidagi o‘n ikki yoshli qizning nutqida “ – Hu o‘l, turqing qursin! Boshingga solaymi shu bilan! Mahallada sasib, o‘quvchi qizlarga kun bermaysan-u, o‘zing noto‘g‘ri ish qilasan...” ham ko‘zga tashlanadi. Shu o‘rinda emotsional- ekspressiv so‘zlar o‘zi qanday bo‘ladi kabi savol tug‘iladi? Emotsional- eksspressiv so‘zlar- bu uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘zlardir, Ular ijobiy yoki salbiy ma’noga ega bo‘ladi. Bunday so‘zlardan nutqda his-hayajonlarni, so‘zlovchining voqelikka nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatini ifodalash maqsadida foydalaniladi.⁴ Aynan bu yerda ham yozuvchi tomonidan obrazlarning vaziyatga salbiy monosabatini ifodalash uchun foydalangan. Turq so‘zi izohli lug‘atlarda “ yuz” so‘zining salbiy ma’nosи sifatida beriladi. Bu so‘zdan ham asosan qipchoq lahjasiga mansub kishilar foydalanadi.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, Abdulla Qahhor o‘z asarlarida so‘zlarni juda o‘rinli va mahorat bilan qo‘llay olgan. Abdulla Qahhor asarlarining tub mohiyatini, uning so‘zga usta yozuvchi ekanligini bilmagan kitobxonda “ Abdulla Qahhorni nega buncha buncha e’zozlaymiz? , Mahoratiga nega bunchalik tahsin o‘qiyimiz? “ kabi savollar tug‘lishi tabiiydir. Ibrohim Haqqulning “ Abdulla Qahhor jasorati” maqolasida quyidagi fikrlarga nazar tashlasak ushbu so‘zlarga javob topish mumkin: “ U so‘z bilan mo‘zija yarata bilgan, til mehnatini zargarlik san’ati darajasida yuksaltira olgan yozuvchi edi. Abdulla Qahhor hikoya va qissalaridagi har bir so‘z, har bir iboraning shu qadar o‘rni muhim va mustahkamki, ularni boshqa so‘z, boshqa ibora yohud jumla bilan ham o‘zgartirish imkonsizdir “. Haqiqatan ham, yozuvchining so‘z qo‘llash mahoratiga qoyil qolmasdan iloj yo‘q. Shevaga xos so‘zlardan foydalinish orqali o‘zbek tili leksikasining boyishiga katta xizmat ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Ashirboev S. O‘zbek dialektalogiyasi- Toshkent: “Nizomiy nomidagi TDPU”. 2011, 80 B
2. Hojiyev A, Nurmonov A, Zaynobiddinov S, Kokren K, Saidxonov M, Sobirov A, Qurbonov D. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarning izohli lug‘ati- Toshkent: “Sharq”. 2001, 336 B
3. Qahhor A. Anor hikoyalar to‘plami- Toshkent: “ G‘ofur G‘ulom”. 2012, 200 B
4. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili- Toshkent: “ Talqin”. 2005, 272-B
5. Туйчибоев Б, Хасанов Б. « Узбек диалектологияси»- Тошкент: «Халқ мероси». 2004, 113 Б